


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022 №10

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI



В Е С Т Н И К
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент

| | | |
|---|---|-----|
| Нигматова Г.М., Хамраев Х.Х. НОВЫЕ ПОДХОДЫ В ДИАГНОСТИКЕ И ТАКТИКЕ ВЕДЕНИЯ ЖЕНЩИН С ПРЕЭКЛАМПСИЕЙ | Nigmatova G.M., Khamraev Kh.Kh. NEW APPROACHES IN THE DIAGNOSIS AND MANAGEMENT OF WOMEN WITH PREECLAMPSIA | 149 |
| Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. ME'DA SARATONI KELIB CHIQISHIGA SHUBHA QILINGAN BEMORLARDA HELICOBACTER PYLORI O'RNINI ANIQLASH | Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. DETECTION OF HELICOBACTER PYLORI IN PATIENTS WITH SUSPECTED GASTRIC CANCER | 153 |
| Рахимова М.Б., Ахмедов Х.С., Саидмуродова М.С. ОЦЕНКА КАРДИОВАСКУЛЯРНОГО РИСКА НА ФОНЕ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ У БОЛЬНЫХ С АНКИЛОЗИРУЮЩИМ СПОНДИЛОАРТРИТОМ | Rakhimova M.B., Akhmedov Kh.S., Saidmurodova M.S. EVALUATION OF CARDIOVASCULAR PERIL ON ENDOTHELIAL DYSFUNCTION BASE IN PATIENTS WITH ANKYLOSING SPONDYLITIS | 158 |
| Тешаев О.Р., Мурадов А.С. МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАСЧЕТА РЕЗЕКЦИИ АНТРАЛЬНОЙ ЧАСТИ ЖЕЛУДКА ПРИ ПРОДОЛЬНОЙ РЕЗЕКЦИИ ЖЕЛУДКА | Teshaev O.R., Murodov A.S. MATHEMATICAL MODEL FOR CALCULATING THE RESECTION OF THE ANTRAL PART OF THE STOMACH WITH A LONGITUDINAL RESECTION OF THE STOMACH | 164 |
| Hakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA POSTASFIKTIK HOLATLARNI VAHOLASHNING ANAMIYATI | Khakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. VALUE OF ASSESSING POSTAFICTIC CIRCUMSTANCES IN JURISPRUDENCE | 168 |
| Шукурова У.П., Ходжиметов А.А., Мухамедова Н.Х., Бауетдинова Г.Д. СОДЕРЖАНИЕ РЕГУЛЯТОРНЫХ ПРОСКЛЕРОТИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ НЕФРОСКЛЕРОЗЕ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПИЕЛОНЕФРИТЕ | Shukurova U.P., Khodzhimetov A.A., Mukhamedova N.Kh., Bauyetdinova G.D. THE CONTENT OF REGULATORY PROSCLEROTIC MARKERS OF NEPHROSCLEROSIS IN CHRONIC PYELONEPHRITIS | 171 |
| Юлдашева Д.Ю., Ирнazarова Д.Х., Мамадалиева У.П. ПАТОМОРФОЛОГИЯ МИОМЫ МАТКИ | Yuldasheva D.Y., Kayumova D.T., Irnazarova D.X.P. ATHOMORPHOLOGY OF UTERINE FIBROIDS | 175 |

ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ

HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY

| | | |
|---|--|-----|
| Абдукахарова М.Ф., Матназарова Г.С., Неъматова Н.У. ВНУТРИБОЛЬНИЧНЫЕ ИНФЕКЦИИ И ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫЕ ОСЛОЖНЕНИЯ В ХИРУРГИЧЕСКИХ ОТДЕЛЕНИЯХ | Abdukakharova M.F., Matnazarova G.S., Nematova N.U. HOSPITAL INFECTIONS AND POSTOPERATIVE COMPLICATIONS IN SURGICAL DEPARTMENTS | 180 |
| Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. O'TKIR ICHAK KASALLIKLARINING SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARI BO'YICHA UCHRASH DARAJASI | Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. LEVEL OF ACUTE INTESTINAL DISEASES IN THE REGIONS OF SURKHANDARYA REGION | 184 |
| Мадреимов А.М., Матназарова Г.С., Брянцева Е.В., Маденбаева Г.И. О НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ САНИТАРНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРАХ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН И ИХ ВЛИЯНИИ НА ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫМИ НОВООБРАЗОВАНИЯМИ | Madreimov A.M., Matnazarova G.S., Bryantseva E.V., Madenbaeva G.I. ON ADVERSE SANITARY AND ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN AND THEIR INFLUENCE ON THE INCIDENCE OF MALIGNANT NEOPLASMS | 188 |
| Неъматова Н.У., Матназарова Г.С., Абдукахарова М.Ф. ВИЧ-ИНФЕКЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ | Nematova N.U., Matnazarova G.S., Abdukakharova M.F. HIV- INFECTIONS IN UZBEKISTAN | 194 |

O'TKIR ICHAK KASALLIKLARINING SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARI BO'YICHA UCHRASH DARAJASI

Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N.

УРОВЕНЬ ОСТРЫХ КИШЕЧНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ В РЕГИОНАХ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Ёдгорова Н.Т., Нематов А.С., Мустанов А.Н.

LEVEL OF ACUTE INTESTINAL DISEASES IN THE REGIONS OF SURKHANDARYA REGION

Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N.

Toshkeht Tibbiyot Akademiyasi

Резюме. Всемирная Организация Здравоохранения (ВОЗ) в качестве основных бактериологических показателей, характеризующих качество питьевой воды, рекомендует определение в воде общих колиформных бактерий и *E. Coli*. **Цель исследования:** изучить заболеваемость острыми кишечными инфекциями в регионах Сурхандарьинской области Республики Узбекистан. **Объект исследования:** Материалы для исследования получены из лаборатории Сурхандарьинского областного центра санитарно-эпидемиологической службы и общественного здоровья. **Результаты и обсуждение.** В городе и районе Термез, Жаркурганском, Шурчинском и Кызырикском районах Сурхандарьинской области выявлено больше случаев острой диареи, чем в других районах. Доказано, что наиболее частыми причинами острой диареи являются клебсиеллы и протей. Доказано, что дизентерия Флекснера встречается в 4,5 и 9 раз чаще, чем другие виды.

Ключевые слова: острая кишечная инфекция, острая диарея, дизентерия, клебсиелла, протей.

Summary. The World Health Organization (WHO) recommends the determination of common coliform bacteria and *E. Coli* in water as the main bacteriological indicators characterizing the quality of drinking water. **The purpose of the study:** to study the incidence of acute intestinal infections in the Surkhandarya region of the Republic of Uzbekistan. **Object of study:** Materials for the study were obtained from the laboratory of the Surkhandarya Regional Center for the Sanitary and Epidemiological Service of Peace and Public Health. **Results and discussion.** In the city and district of Termez, Zharkurgan, Shurchinsky and Kyzyrik districts of Surkhandarya region, more cases of acute diarrhea were detected than in other districts. It has been proven that the most common causes of acute diarrhea are *Klebsiella* and *Proteus*. It has been proven that Flexner type dysentery occurs 4.5 and 9 times more often than other types.

Key words: acute intestinal infection, acute diarrhea, dysentery, *Klebsiella*, *Proteus*.

Dolzarbliigi: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) asosiy ichimlik suvi sifatini tavsiflovchi bakteriologik ko'rsatkichlardan umumiy koliform bakteriyalar va *E. coli* ni aniqlashni tavsiya qiladi. MDH mamlakatlaridan bir nechta qismida, hozirgi kunga qadar asosiy suvda normallashtirilgan ichimlik suvi ko'rsatkichini tekshirishda yangi najas ko'rsatkichlari hisoblanadigan glyukoza-musbat koliform bakteriyalar va *E.coli* ni aniqlanadi [1, 2, 3].

O'zbekistonda Markazlashtirilgan kommunal va ichimlik manbalaridagi suv sifati ta'minoti O'zDST 951:2011 "Markazlashtirilgan maishiy ichimlik suvi ta'minoti manbalari. Gigiyenik, texnik talablar va tanlash qoidalari" standarti bilan tartibga solinadi [4, 5, 6, 7].

Suv sifati bo'yicha mikrobiologik ko'rsatkichlar bilvosita ko'rsatkichlarning belgilangan qiymatlariga muvofiq normallashtiriladi va ichak guruhidagi bakteriyalar indeksini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, hududlarda rekreatsion suvdan foydalanishning ahamiyati issiq iqlimli hududlarda ortib bormoqda. Buning natijasida nafaqat ichak infeksiyalarining oldini olish muammosini keltirib chiqaradi, balki yuqori nafas yo'llari va teri kasalliklarining tarqalishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Ma'lumki, odamlar ifloslangan suv bilan aloqa qilgandan keyin, adenovirus kasalliklari,

kon'yunktivit, stafilokokk infeksiyalari paydo bo'ladi. Bu esa rekreatsion suv ob'ektlarida suvdan foydalanishning tartibga solinishini talab qiladi [8, 9, 10, 11].

Yuqoridagilar mavjud sifat monitoringini suv havzalari samarali emasligini, xalqaro talablarga javob bermasligini ko'rsatadi, shuningdek maishiy va ichimlik suvga ehtiyojlar va dam olish uchun foydalaniladigan suv havzalarining epidemik xavfsizligini kafolatlamaydi. O'tkir ichak infeksiyalarining (O'II) pediatriya sohasidagi muammosi bugungi kungacha dolzarb bo'lib, ular kasallikning og'ir va murakkab shakllari hamda yuqumli kasalliklardan keyingi ovqat hazm qilish kasalliklari, ayniqsa chaqaloqlarda sezilarli darajada tez-tez uchrashi bilan xavfli hisoblanadi. So'nggi yillarda, JSST ma'lumotlariga ko'ra, bolalarda O'II asosiy qo'zg'atuvchilari orasida, eng keng tarqalgan viruslar, xususan, rotaviruslar, noroviruslar va boshqalar bo'lib hisoblanadi, biroq bakterial diareyalar ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi [12, 13, 14,15]. Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda mustahkamlashning beshta barqaror yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh yetishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari qobul qilindi. 28.01.2022 yildagi PF-60-son O'zbekiston Res-


publikasi Prezidentining Farmoni «Harakat strategiyasidan — Taraqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan ettita ustuvor yunalishdan iborat bulib, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan va unda quyidagilar: Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish. Suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish. Respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yil-

rik shaharlari va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash maqsad qilib olingan [1].

Tadqiqot maqsadi: O'tkir ichak kasalliklarining O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hududlari bo'yicha uchrash darajasini o'rganish.

Tadqiqot ob'ekti: Tadqiqotga oid materiallar Surxondaryo viloyati sanitariya epidemiologiya oshoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining laboratoriyasidan yig'ildi.


Natijalar va muhokama.



1-diagramma. Surxondaryo viloyati har bir hududidagi o'tkir diareyalarning 2020-2021 yillardagi intensiv ko'rsatkichlari.

1- diagrammadan ko'rinib turibdiki, o'tkir diareya bilan eng ko'p kasallanish 2021 yilda Termiz shahri va tumanida, Jarqo'rg'on, Sho'rchi va Qiziriq tumanlarida kuzatilgan. 2020 yilda esa aksincha, Jarqo'rg'on va Sho'rchi tumanlarida o'tkir ichak infeksiyasi bilan ka-

sallanish holati kam kuzatilganligi aniqlandi. Surxondaryo viloyatining qolgan tumanlarida 2020 va 2021 yillar orasida kasallanish darajasi bo'yicha ishonarli ko'rsatkichlar aniqlanmadi.




2-diagramma. Surxondaryo viloyatida kuzatilgan diareyalarning etiologiyasi bo'yicha uchrash darajasi

ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ

2-diagrammadan ko'rinib turibdiki, etiologiyasi aniqlanmagan o'tkir diareyalar etiologiyasi aniqlangan o'tkir diareyalarga nisbatan deyarli 2 barobar ko'proq


kuzatilgan (2028 va 1013 ta mos ravishda, $P < 0,05$). Etiologiyasi aniqlangan o'tkir diareyalardan atigi 1,2 foizini ichburug' infeksiyasi tashkil etgan.



3-diagramma. Dizenteriyaning eng ko'p aniqlangan turlari bo'yicha ma'lumot.

Dizenteriya turlarining uchrash darajasi o'rganilganda, Fleksner turi Zonne va Grigoreva-Shiga turiga nisbatan ishonarli ravishda 4,5 va 9 barobar ko'p uchraganligi kuzatildi (9%, 2% va 1% mos ravishda,

$P > 0,05$). Zonne va Grigoreva-Shiga turlarining uchrash darajasidagi ko'rsatkichlar orasidagi farq ishonarli emasligini ko'rsatdi (2% va 1% mos ravishda, $P > 0,05$).



4-diagramma. Etiologiyasi aniqlangan eng ko'p kuzatilgan o'tkir diareyalarning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot

Etiologiyasi aniqlangan eng ko'p kuzatilgan o'tkir diareyalarning qo'zg'atuvchilari tahlil qilganda, Protey va Klebsiyella hamda etiologiyali diareyalarning deyarli bir xil darajada uchraganligi ma'lum bo'ldi va ko'rsatkichlar orasidagi farq ishonarsiz ekanligi aniqlandi (18,8% va 19,2% mos ravishda, $P > 0,05$). Sitrobakter, Enterobakter va Stafilokk etiologiyali diareyalarning ham deyarli bir xil darajada uchraganligi ma'lum bo'ldi va ko'rsatkichlar orasidagi farq ishonarsiz ekanligi aniqlandi (10,8%, 11,9% va 11,9% mos ravishda, $P > 0,05$). Biroq, Protey va Klebsiyellalarning Sitrobakter, Enterobakter va Stafilokklarga nisbatan uchrash darajasi 1,5 barobar ko'p ekanligi ma'lum

bo'ldi hamda ko'rsatkichlar orasidagi farq ishonarli ekanligi aniqlandi (18,8% va 19,2%, 10,8%, 11,9% va 11,9% mos ravishda, $P < 0,05$).

Xulosa. Surxondaryo viloyatining Termiz shahri va tumanida, Jarqo'rg'on, Sho'rchi hamda Qiziriq tumanlarida boshqa tumanlariga nisbatan o'tkir diareyaning ko'p uchrashi aniqlandi. O'tkir diareyaga eng ko'p hollarda Klebsiyella va Protey sabab bo'lishi isbotlandi. Dizenteriyaning Flexner turi boshqa turlariga nisbatan 4,5 va 9 barobar ko'p uchrashi isbotlandi. Olingan natijalarga asosanib, yakuniy xulosa shundan iboratki, aholi o'rtasida doimiy kuzatilayotgan diareya kasalliklarining etiologik sabablarini o'rganishda epidemiologik,

mikrobiologik va genetik usullarga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Алёшня В.В., Журавлев П.В., Яловина С.В. // Особенности индикаторного значения бактериологических показателей при оценке качества воды в отношении эпидемической безопасности в условиях зарегулированного водоёма. Международный Конгресс «Вода: Экология и технология». - М. - 2002. - С.705

2. Алматов Б.И., Нуралиев Н.А., Курбанова С.Ю. Посезонная динамика изменения микробного состава воды некоторых водохранилищ узбекистана // SSN 0201-8462. Микробиол. журн., 2016, Т. 78, № 2, 95-102 б

3. ГОСТ 951:2011. Источники централизованного хозяйственно-питьевого водоснабжения. Гигиенические, технические требования и правила выбора. - Ташкент, 2011. - 12 с.

4. Файзиева Д.Х., Усманов И.А., Бекжанова Е.Е., Мусаева А.К. // Изучение выживаемости энтерококков и стафилококков в воде в условиях эксперимента. - Бюллетень ассоциации врачей Узбекистана. - Ташкент. - 2007. - №3. - С.84-85.

5. Калашников И.А., Куличенко О.А. // Водоснабжение из поверхностных водоёмов - потенциальная угроза здоровью водопользователей. 7 Международный Конгресс «Вода: Экология и технология». - М. - 2006. - С.916-917.

6. Китайбеков С.М., Миртазаев А., Матназарова Г.С. Заболеваемость шигеллёзами в республике Узбекистан за 2009-2008 года // Актуальные проблемы инфектологии, эпидемиологии и паразитологии: Международная научно-практическая конференция. - Бухара, 2022. - С. 74-75.

7. Муминова М.Т., Маматмусаева Ф.Ш. /Ўткир диареяли ОИВ зарарланган болаларда ичакнинг факультатив микрофлорасига Sacharomyces bouiladinинг таъсири// Инфекция, иммунитет и фармакология, №4., 2022 й. -147-156 б.

8. Усманов И. А.1, Хасанова М. И.2, Файзиева М. Ф. Гигиеническое нормирование микробных показателей в воде водоёмов в условиях Узбекистана // Вестник науки и образования № 2(14) 2016, 98-102 б

9. Эралиев У.Э. Этиологическая структура острых кишечных инфекций у детей г. Ташкента // Детские инфекции, 2016 №4, 63-65 б

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

11. Clasen TF, Alexander KT, Sinclair D, et al. Interventions to improve water quality for preventing diarrhoea. Cochrane Database Syst Rev. 2015;2015(10):CD004794. Published 2015 Oct 20. doi:10.1002/14651858.CD004794.pub3

12. Hasan MM, Hoque Z, Kabir E, Hossain S. Differences in levels of E. coli contamination of point of use drinking water in Bangladesh. PLoS One. 2022;17(5):e0267386. Published 2022 May 11. doi:10.1371/journal.pone.0267386

13. Yodgorova N.T. Bolalar ichak mikrobiotsenoziga parazitozlarning ta'siri // Monografiya, Toshkent, 2019 yil, 130 bet

14. Yodgorova N.T. Odam fiziologiyasida ichak ta-yoqchasining ahamiyati // o'quv uslubiy qo'llanma, Toshkent, 2018 yil, 36 bet

15. Yodgorova N.T., Jumamurodov S.T. // Ichak kasalliklarini keltirib chiqaruvchi enterobakteriyalarning bakteriologik diagnostikasi // "Tibbiyotning dolzarb muammolari" Talabalar klinik ordinatorlar va yosh olimlar 26-ilmiy-nazariy anjumani materiallari, Urganch-2019.25.04. 284-286 bet

O'TKIR ICHAK KASALLIKLARINING SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARI BO'YICHA UCHRASH DARAJASI

Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N.

Annotatsiya. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) asosiy ichimlik suvi sifatini tavsiflovchi bakteriologik ko'rsatkichlardan umumiy koliform bakteriyalar va E.coli ni aniqlashni tavsiya qiladi. **Tadqiqot maqsadi:** O'tkir ichak kasalliklarining O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati hududlari bo'yicha uchrash darajasini o'rganish. **Tadqiqot ob'ekti:** Tadqiqotga oid materiallar Surxondaryo viloyati sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining laboratoriyasidan yig'ildi. **Natijalar va muhokama.** Surxondaryo viloyatining Termiz shahri va tumanida, Jarqo'rg'on, Sho'rchi hamda Qiziriq tumanlarida boshqa tumanlariga nisbatan o'tkir diyareyaning ko'p uchrashi aniqlandi. O'tkir diyareyaga eng ko'p hollarda Klebsiella va Protey sabab bo'lishi isbotlandi. Dizenteriyaning Flexner turi boshqa turlariga nisbatan 4,5 va 9 barobar ko'p uchrashi isbotlandi.

Kalit so'zlar: O'tkir ichak infeksiyasi, o'tkir diyareya, dizenteriya, klebsiella, protey.

